

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

**fanidan
amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun**

**USLUBIY QO'LLANMA
II bo'lim**

TOSHKENT-2014

Djurabekova Z.X. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy qo‘llanma. II bo‘lim.

-T.: ToshDTU, 2014.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada “Soliqlar va soliqa tortish” faniga doir masalalar, rasmlar va jadvallar ko‘rinishida yoritilgan.

Mazkur fanga doir ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma barcha ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar soliqlarga doir bilim salohiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olinib tayyorlangan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning soliq siyosatiga chambarchas bog‘liqligi fuqarolik jamiyatini soliq sohasiga doir bilimga ega bo‘lishini taqozo etadi. Chunki soliqlar muayyan maqsadlarni ko‘zlashdan tashqari jamiyatning ijtimoiy farovonligini yaxshilashga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonida talaba ushbu fanni yuqori darajada o‘zlashtirilishida, fanga doir yuqori bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishida uslubiy qo‘llanmaning o‘rni beqiyosdir.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta’limning uni tayyorlashda qo‘yilgan talablariga, jumladan, o‘quv va o‘quv ishchi dasturlariga mos ravishda tuzilgan. Qo‘llanmada mavzularga doir nazariy va amaliy asoslar tushunarli yoritilgan. Ayniqsa, fanga doir mavzularni mustaqil o‘rganish uchun nazorat va test savollari,masalalar, adabiyotlar ro‘yhati jamlangan.

Ushbu uslubiy qo‘llanmadan noiqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun seminar va amaliy mashg‘ulotlar olib borishda foydalanish tavsiya etiladi.

Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etishga tayyorlandi.

Taqrizchilar: **Tursunxodjayev M.L.-ToshDTU professori, i.f.d.**
Ivatov I. – TDIU professori , i.f.d

KIRISH

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni tarkibiy qayta qurish, islohotlar samarasini oshirish borasida bir qator izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar asosiy yo‘nalishlari sifatida soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, bundan asosiy maqsad – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat byudjeti o‘rtasida majburiy to‘lovlar bilan iqtisodiy munosabatlarga o‘zaro erishishdan iborat. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqilib, uning taktika va strategiyasi aniqlangan holda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to‘lovchilar va davlat byudjeti manfaatlari o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan. Bunday uyg‘unlikni ta‘minlashning eng muhim vositalaridan biri – soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat byudjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta‘minlagan xolda soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etmasligiga erishishdan iborat. So‘nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining zimmasidagi soliq yuki kamayib, uning oqibatida iqtisodiy o‘sishga erishilmoqda. Bu borada Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek : “Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o‘sish , ko‘p jihatdan, iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog‘liq”.

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy islohotlar yo‘lini tanlaganidan so‘ng, oldimizda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o‘tishdek murakkab jarayonini boshidan kechirgan rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarining ilg‘or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi.

O‘gan davr mobaynida soliq o‘rganlari tarkibini malakali kadrlar bilan ta‘minlashga katta e’tibor berildi. Soliq xizmati xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlashda ularga nazariy jihatdan ko‘mak beradigan o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratish mihim ahamiyat kasb etadi. Soliq va soliqqa tortish fani iqtisodiy yo‘nalishdagi ToshDTU talabalari uchun umum kasbiy-mutaxasislik fan hisoblanib, talabalar ushbu fanni o‘qib

o‘rganish orqali jamiyat taraqqiyotidagi roli hamda ahamiyati xususida nazariy bilimlarga ega bo‘lib, soliqlarning obyektiv zarurligini anglab yetgan holda mavjud soliqlarini hisoblash va tolash tartiblari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Qolaversa, ushbu fan talabalarning o‘z tanlagan sohalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq tushunchasi paydo bo‘lganidan boshlab, uni joriy qilish va rivojlantirish bilan muntazam shug‘ullanib kelingan. Soliqlar bo‘yicha klassik iqtisodchi olimlardan A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, N.Turgenev, D.Yum, A. Laffer hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlardan R.Kempbell, K. Makkonel, V.Tverdoxlebov, S.Fisher, A.Voznesenskiy, V. Gluxov, B.Teyt, E.Glazova, D. Cherniklarning asarlarida soliq tushunchasi bat afsil yoritilgan. Bundan tashqari, respublikamiz iqtisodchi olimlardan I.Karimov, Q.Yahyoyev, M. Sharifxodjayev, S. G‘ulomov, T.Malikov, E.E.Gadoyev, O.Olimjonov, M.Alimardonov, A.Jo‘rayev, B.Toshmurodova, N.Qo‘ziyeva, Sh. Toshmatov asarlarida soliqlar va soliqqa tortish munosabatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani yaratish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning soliqlar bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlardan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan me’yorit hujjatlar va internet tarmog‘i ma’lumotlaridan hamda Davlat soliq qo‘mitasi hisobot materiallaridan foydalanildi. O‘quv qo‘llanmaning ayrim paragrflarini tayyorlashda professor Mahkamova M.A., katta o‘qituvchi Djo‘rabekova Z.X. lar ishtirok etishgan.

Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan munosabatlarning rivojlanishi soliqlar soliq tizimi va soliq siyosatida keskin o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida soliq sohasida qabul qilingan qonunlar va qarorlar mavjud muammolarni hal qilishga imkon yaratda.

O‘zbekistonning Mustaqil soliq tizimini yaratish O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 15- fevraldagи “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi 1993-yil 7-maydagи “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi Qonunlarini qabul qilishdan boshlandi. Bu Qonunlar bo‘yicha kiritilgan soliqlar yildan yilga takomillashtirilib borildi. 2007-yil 25-dekabrda qo‘sishimcha va o‘zgarishlar kiritilgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

qabul qilindi. Keyingi yillarda ham davr talabidan kelib chiqqan xolda Soliq kodeksining tegishli moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston buyuk kelajak sari" kitobida: "Islohotning hozirgi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlasdh birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlanuvchilik vazifasini bajarishi kerak", deb ta'kidlagan.

Soliq tizimini takomillashtirish maqsadida soliq xizmati tizimi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni hayotga tadbiq etish tadbirlarini amalga oshirish jarayonida kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni takomillashtirishda ta'lim berishning nazariy, amaliy, noan'anaviy, usullarini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr talabidir. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ushbu o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

1 -MAVZU. YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ. YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG‘I

Reja.

- 1.Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish muddatlari.
- 2.Yer solig‘ining joriy etilishidan maqsad
- 3.Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar
- 4.Soliq solish obyekti, bazasi,yer solig‘i stavkalari va yer solig‘i to‘lashdan imtiyozlar.

Tayanch iboralar: resurs, yuridik shaxs,jismoniy shaxs,tadbirkor,yakka tadbirkor.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi hamda uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi .

**S
O
L
I
Q

S
T
A
V
K
A
L
A
R
I**


- Sug‘oriladigan jamoat qishloq xo‘jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari
- Lalmi ekinzorlar, bo‘z yerlar va ko‘p yillik ko‘chatlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari
- Sug‘orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlari uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari
- Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligida foydalanimaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig‘i stavkalari
- Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari
- Shaxar va poselkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig‘i stavkalari
- Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari
- Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari

1.1-rasm. Soliq stavkalari

1.1-jadval

Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari

Zona	Undiriladigan yer solig'i stavkalari	
	yuridik shaxslardan 1 ga uchun, so'm	fuqarolardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan 1 kv.m. uchun, so'm
1	4 552 235	44,9
2	4 688 578	56,5
3	7 830 414	79,8
4	11 745 604	86,3
5	13 957 692	98,2
6	19 526 132	121,3
7	23 431 355	127,4
8	27 414 726	133,4
9	31 253 431	148,3
10	35 003 974	157,0
11	38 854 350	168,4
12	42 739 618	177,7
13	46 586 594	186,4
14	49 708 446	195,0



1.2-rasm. Yer silog'i hisob-kitoblari


Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.




1.3-rasm Soliq to'lovchilar takibi

Jismoniy shaxslarning yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.




1.4-rasm. Soliq solish obyekti

O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga binoan yer solig‘i to‘lashdan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar ozod qilinadi.



1.5-rasm. Soliq imtiyozlari



1.5-rasm (davomi)

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

1.2-jadval

**Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik
uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari**


Respublika , viloyat	0,01 ga uchun yer solig‘i stavkalari, so‘m			
	dehqon xo‘jaligini ritishga berilgan erlar uchun		jamo a bog‘dorchiligi va polizchiligin ritishga berilgan erlar uchun	
	sug‘oriladigan zona			
aholi punktleri da	aholi punktleri dan tashqarid a	lalmi yerla r		
Qoraqalpog‘iston				
Respublikasi:	695,0	348,4	69,5	367,6
shimoliy	1 113,0	556,8	112,7	-
markaziy	1 236,5	618,1	124,1	454,7
janubiy	1 306,8	652,9	129,6	506,5
Andijon	1 234,8	617,0	114,5	452,5
Buxoro	1 157,3	578,9	83,2	325,1
Jizzax	1 157,3	578,9	82,1	318,6
Qashqadaryo	1 201,3	600,4	99,2	394,1
Navoiy	1 251,0	625,7	124,1	480,1
Namangan	1 319,6	659,9	152,9	596,8
Samarqand	1 422,7	711,6	199,8	777,1
Surxondaryo	1 166,8	583,6	86,3	333,7
Sirdaryo	1 316,4	658,3	151,8	592,9
Toshkent	1 231,1	615,6	113,4	444,5
Farg‘ona	1 236,5	618,1	117,0	454,7

Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘ini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi. Davlat soliq xizmati organlari yer uchastkalari mulkdorlari, yer galari yoki erdan foydalanuvchilar yoki ijara chilar bo‘lgan jismoniy shaxslarning muntazam hisobini ritadilar. Soliq to‘lanishi to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari tomonidan har yili, joriy yilning 1 mayidan kechiktirmay topshiriladi .

7.3-jadval

Qishloq xo‘jaligi erlarining me'yoriy qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan yagona yer solig‘i stavkalari

To‘lovchilar	Me'yoriy foizlardagi stavka*	qiymatga
Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	2.8	



***Bunda jamoat binolari va hovlilari band etgan yerlar bo‘yicha baholash 2,0 koeffisientini qo’llash orqali amalga oshiriladi.**

1.Masala:

“mingbuloq” xissadorlik jamiyatining yer solig‘i summasi 75mln. So‘mni tashkil etadi. Soliqning yig‘imi darajasi 97%, kelgusi yil indeksatsiyasi 1,5 ni tashkil etadi. Korxonaning 2013 yilda kutilayotgan soliq summasini hisoblang.

Yechilishi:

$$75000.0 * 1,5 * 97\% = 109125.0$$

2.Masala:

Toshkent shaxrining 8-zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar xokimi qarori bo‘yicha ajratilgan yer maydoni 5,5 ga ni tashkil etadi. Korhonaning hisobot yilida to‘lashi lozim bo‘lgan yer solig‘I summasini hisoblang va to‘lash muddatlarini belgilang.

Yechilishi:

1.toshkent shaxrida yer uchastkalaridan foydalangalik uchun yer solig‘I stafkalari 14 ta zonaga ajratilgan xolda belgilangan. Shunga muvofiq 2013 yil 8 zona uchun har bir gs uchun 15230403 so‘m belgilangan.

2.Yerning maydoni va belgilangan solig‘ stafkasidan kelib chiqib solig‘ summasini hisoblaymiz.

$$5,5 * 15230403 = 8376721,5 \text{ so‘m}$$

3.Yer solig‘i byudjetga har chorakning ikkinchi oy 15 kuniga qadar yillik summaning to‘rtadan bir qismi miqdorida to‘lanadi, ya’ni:

1 chorak uchun – 15 fevralgacha – 23434203 so‘m

2 chorak uchun – 15 maygacha – 25134203 so‘m

3 chorak uchun – 15 avgustgacha – 26134203 so‘m

4 chorak uchun – 15 noyabrgacha – 27134203 so‘m

1 -MAVZU BO‘YICHA TEST VARIANTLARI:

1. Qaysi javobda mol-mulk solig‘ining soliqqa tortish obyekti berilgan.

- *A. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar
- B. Nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob'ektlari
- C. Kapital qo‘yilmalar, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar
- D. Pul mablag‘lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar

2. Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig‘ini to‘lash haqidagi to‘lov xabarnomasi qaysi muddatdan kechiktirilmay taqdim tiladi.

- A. Joriy yilning 5 yanvaridan
- B. Joriy yilning 25 aprelidan
- S. Joriy yilning 15 iyunidan
- *D. Joriy yilning 1 mayidan

3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkleri qanday stavkada soliqqa tortiladi.

- A. 10 va 5
- B. 3,5 va 7
- *C. 0,5
- D. 0,2 va 7

4. Qaysi jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan.

- *A. I va II guruh nogironlari
- B. Madaniyat va xalq ta’limi xodimlari
- S. Tibbiyot xodimlari
- D. Og‘ir mehnat sharoitida ishlovchilar

5. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini qaysi muddatlarda to‘laydilar.

- A. 15 yanvar va 15 iyulga qadar**
- B. 1 iyun va 1 noyabrga qadar**
- S. 1 dekabrga qadar**
- *D. 15 iyun va 15 dekabrga qadar**

6. Yer solig‘ini joriy etishdan maqsad nima

- A. Davlat byudjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash**
- *B. Davlat byudjetini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag‘batlantirish**
- S. yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish**
- D. Mahalliy byudjet daromadlarini moliyaviy mablag‘lar bilan ta'minlash**

7. Yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lib kimlar hisoblanadi.

- A. Galigida yer uchastkalariga bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar**
- B. Foydalanishida yer uchastkalariga bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar**
- *C. O‘z mulkida, galigida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar**
- D. O‘z mulkida, galigida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar**

9. Berilgan yer uchastkalaridan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslarga qanday chora belgilangan.

- A. Yer solig‘i uch baravar miqdorida to‘lanadi**
- *V. Yer solig‘i ikki baravar miqdorida to‘lanadi**
- C. Moliyaviy jazo chorralari qo‘llaniladi**
- D. Ma‘muriy jazo chorralari qo‘llaniladi**

10. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig‘idan ozod etilmagan.


- A. Uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar**
- B. I va II guruh nogironlari**
- C. yaylov chorvachiligining cho‘ponlari**
- *D. Yolg‘iz bo‘limgan, boquvchisi bor pensionerlar**

2 MAVZU. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI. MAHALLIY SOLIQLAR VA YEG'IMLAR REJA.

- 1.Mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan maqsad
- 2.Davlat byudjeti daromadlari tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining salmog‘i.
3. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining soliqqa tortish bazasi
- 4.Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i stavkalari.
- 5.Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i soliq obyekti va bazasi.
- 6.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq
- 7.Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
- 8.Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

Tayanch iboralar: mulk, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, kredit, lizing, byudjet, ulush.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi .



2.1- rasm. Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra

Soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmaetgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iboratdir.




2.2-rasm. Mol mulk silig‘ini joriy qilish

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtida ushbu soliqning tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining soliqli daromadlarida 2,3 – 4,5 foiz oralig‘ini tashkil etmoqda

**Davlat byudjeti daromadlari tarkibida yuridik shaxslardan
olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi, (foizda)¹**


Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2009	2010	2011	2012	2013
Davlat byudjeti daromadlarida jami soliqlar tushumi	100	100	100	100	100
Jami Davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig‘ining ulushi	2,6	4,4	5,1	4,2	4,5
shu jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi	2,3	3,9	4,7	3,9	4,5
Jami mulkiy soliqlar tushumida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi	86,0	90,1	92,6	92,3	92,8
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushi	7,1	7,7	7,9	7,8	7,8

Soliq qonunchiliga asosan mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi



2.3-rasm. Yuridik shaxslardan olinadigan mol mulk solig'i

Soliqqa tortishning alohida rejimi o'rnatilgan ayrim toifadagi korxonalarga, jumladan yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, yagona soliq to'lovini to'lovchi miqrofirma va kichik korxonalar hamda savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari hamda notijorat tashkilotlar uchun ularning asosiy faoliyati bo'yicha mol-mulk solig'ini to'lash tatbiq etilmaydi.



2.4-rasm. Asosiy faoliyati bo'yicha mol-mulk solig'i to'lash tatbiq etilmaydi


Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish bazasi bo'lib, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining o'rtacha yillik qiymati, meeriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarining o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanganadi. 2012 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi 3,5 foiz miqdorida belgilangan

**Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i
Stavkalari**

T/p	To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
1.	Yuridik shaxslar	3,5
2.	O‘zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 12 oktyabrdagi PF-1871 soni farmoni bilan tasdiqlangan xom-ashyo tovarlari ro‘yxatidagilar bundan istisno):	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagi rasmda keltirilgan korxona va tashkilotlar ozod qilinadi.



2.5–rasm. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilaetganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi.



2.6-rasm. Soliq solinadigan baza

Yuridik shaxslar byudjetga joriy to‘lovlар summasini hisobot yili mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda hisoblaydilar. Byudjetga joriy to‘lovlarni to‘lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida to‘lanadi.



2.7-rasm. Soliq hisob-kitoblarini to‘lash tartibi

Masala:

Korxona asosiy vositalarning 1 yanvar xolati bo‘yicha qiymati 1100so‘mni tashkil etib, aprel oyining 1 o‘n kunligida yana 250000so‘mlik

asosiy vosita kirim qilingan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 1 yanvar holatiga 100; 1 fevral holatiga 125; 1 mart holatiga 150; 1 aprel holatiga 250 ming so‘mni tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlarga asosan korxona mol-mulk solig‘ini hisoblang(1 chorak uchun)

Yechilishi:

1.Korxona asosiy vositalari birinchi chorakdagi o‘rtacha qoldiq qiymatini topishimiz lozim, ya’ni:

$$Qq \text{ 1 yanvar} = 1100 - 100 = 1000 \text{ ming so‘m};$$

$$Qq \text{ 1 fevral} = 1100 - 125 = 975 \text{ ming so‘m};$$

$$Qq \text{ 1 mart} = 1100 - 150 = 950 \text{ ming so‘m};$$

$$Qq \text{ 1 aprel} = 1350 - 250 = 1100 \text{ ming so‘m}.$$

(bu yerda, qq – asosiy vositalarning qoldiq qiymati)


$$\begin{aligned} O‘qq - 1 \text{ yanvar} : 2 + 1 \text{ fevral} + 1 \text{ mart} + 1 \text{ aprel.} / 2 / 12 &= 1000 / 2 + 975 \\ &+ 950 + 1100 : 2 / 12 = 881,3 \text{ ming so‘m}. \end{aligned}$$

$$2.Ms = 881,3 * 3,5\% = 30,8 \text{ ming so‘m}.$$

Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i


Soliq solinadigan mol-mulkga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishadi .

Jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralari, chorborg‘ va bog‘ uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari soliq solish obyekti hisoblanadi. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to‘lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.




2.8-rasm. Soliq obyekti

Soliq qonunchiligiga ko‘ra quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo‘lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi.



2.9-rasm. Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi. Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir malumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lмаган taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.




2.10-rasm. To'lov habarnomasi

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kichik biznes subektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-sod “Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o‘tishni qo‘llash to‘g‘risida” gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o‘tkazildi. Bunda kichik korxonalar

uchun yagona soliq to‘lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy kamligi qat’iy belgilandi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o‘rnatalishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o‘rniga faqatgina bitta yagona soliq bo‘yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada korxona hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

Soliq Kodeksining 348-moddasiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun qo‘llaniladi va quyidagi soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim tilishini nazarda tutadi.



2.11-rasm. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan Soliq kodeksida nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar o‘rniga to‘lanadi .



2.12-rasm. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi


O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 349-moddasiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llanilganda ayrim umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga doir majburiyatlar saqlab qolinadi .



2.13-rasm. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq

Yagona soliq to‘lovi

Mikrofirmalar va kichik korxonalarini jadal rivojlantirishni nada rag‘batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘sishimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq 2011 yilning 1 iyuldan boshlab O‘zbekiston soliq tizimida kichik biznes subyektlarining ba’zi toifalari uchun yagona soliq to‘lovi joriy qilindi. U birxillashtirilgan bo‘lib, quyidagi majburiy to‘lovlarni to‘lash o‘rniga joriy qilingan :



2.14-rasm. Yagona soliq to‘lovi quyidagi to‘lovlardan o‘rniga joriy etildi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida yagona soliq to‘lovidan tushumlar qori salmoqqa ega emas. Jumladan, uning jami

byudjet daromadlaridagi salmog‘i 2010 yilda 2.4 foizni, 2011 yilda 4.2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012 yilda esa reja ko‘rsatkichlarida 4.0 foiz bo‘lishi prognozlashtirilgan.

2.2-jadval


O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlar va yagona soliq to‘lovining salmog‘i to‘g‘risida ma’lumot*

Ko‘rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil (reja)	
	mln. so‘m	Jamig a nis- n, %da	mln.su m	Jamig a nis- n, %da	mln.su m	Jami ga nis-n, %da
Davlat byudjeti daromadlari – (maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz), jami	3310 854	100	40424 60,4	100	510086 7,9	100
To‘g‘ri soliqlar	1045 920,6	25,9	12196 47,9	23,9	179805 1,7	25,3
Shundan:						
yagona soliq to‘lovi	9554 2,7	2,4	21468 8,9	4,2	290650, 2	4,0

*Manbaa: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 350-moddasiga muvofiq, yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

YAGONA SOLIQ TO'LOVI TO'LOVCHILARI:



2.15-rasm. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari:

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga nisbatan yagona soliq to'lovi qo'llanilmaydi :

**YAGONA SOLIQ
TO'LOVI TATBIQ
ETILMAYDI:
(O'zbekiston Respublikasi
Soliq kodeksining
350-moddasi)**

Yer qa'ridan
foydalanganl
ik uchun
soliq
solinadigan
foydali
qazilmalarini
qazib olishni
amalga
oshiruvchi
mikrofirmal
ar va kichik
korxonalarg
a

aksiz solig'i
to'lanadigan
mahsulot
ishlab
chiqaruvchi
mikrofirmal
ar va kichik
korxonalarg
a

mahsulot
taqsimotiga
oid bitimlar
ishtiokchisi
bo'lgan
mikrofirmala
r va kichik
korxonalarga


qat'iy
belgilangan
soliq
to'lash
nazarda
tutilgan
faoli t
doirasidagi
mikrofirmal
ar va kichik
korxonalarg
a

2.16-rasm. Yagona soliq to'lovi tatbiq tilmaydi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 avgustdagagi "1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida"gi PF-3305 sonli


farmoniga ko‘ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes sub'ektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra yagona soliq to‘lovi obyekti bo‘lib yalpi tushum hisoblanadi va uning tarkibiga quyidagilar kiritiladi :



2.17-rasm. Soliq solish obyekti

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 356-moddasiga muvofiq, quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan lpi tushum soliq solinadigan bazadir :



2.18-rasm. Yalpi tushumdan chegirib tashlanadi


Yagona soliq to‘lovi stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi va turli yillar bo‘yicha quyidagi ko‘rinishga 11.2-diagramma

Yagona soliq to‘lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to‘lovi stavkalari 2012 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 12 dekabrdagi PQ-744-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagicha tabaqlashtirilgan holda belgilangan




2.19-rasm. Yagona soliq to‘lovi

Yagona soliq to‘lovining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi kun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:




2.20-rasm. Hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 360-moddasiga muvofiq yagona soliq to'lovini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:




2.21-rasm. Yagona soliq to'lovini to'lash tartibi

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar, shu jumladan qat'iy belgilangan soliqning salmog'ini quyidagi diagrammada ham ko'rish mumkin 2.1-diagramma



Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi.


**QAT'IY BELGILANGAN SOLIQNI
TO'LOVCHILAR**
**(Ozbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-
moddasi)**



2.22-rasm. Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar

O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 372-moddasiga muvofiq, qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkich soliq solinadigan obyekt hisoblansa, soliq solinadigan baza sa fizik ko‘rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**QAT'iy BELGILANGAN SOLIQ OBYEKTI VA
SOLIQ SOLINADIGAN BAZA**
(O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 372-
moddasi)



2.23-rasm. Qat'iy belgilangan soliq obyekti va

Soliq solinadigan baza


Yuridik shaxsni tashkil tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini quyidagi mezonlarga asoslanib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari belgilaydi.



2.24-rasm. Qat'iy belgilangan soliq stavkasini belgilash mezonlari


Qat'iy belgilangan soliqning bazaviy stavkalari va yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq summasining hisob-kitobi uchun tuzatuvchi koeffisiyentlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra, qat’iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi :



2.25-rasm. Hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi


Soliq solish obyekti va ish haqining eng kam miqdori o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to‘lovnii to‘lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart. Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra, qat’iy belgilangan soliqni to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi :



2.26-rasm. Soliqni to'lash tartibi

Agar yakka tartibdag'i tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ga bo'lsalar, belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburi ti ularning zimmasida saqlanib qoladi

Tadbirkorlik faoli tini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir



2.27-rasm. Soliq to‘lovchilar

Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bo‘yicha bu soliqni to‘lamaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullansalar, ular ushbu faoliyat bo‘yicha alohida hisob yuritishlari va byudjetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to‘lashlari lozim.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanidan keyin ular tasarrufida qolgan foyda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi .

Soliq obyekti va bazasi

S.K. 296-modda



Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir

2.28-rasm. Soliq obyekti va bazasi

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining eng yuqori stavkasi soliq solish obyektining 8 foizi miqdorida belgilangan. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, mulkida bo‘lgan ishlovchilari umumiylar sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi.

**Soliq imtiyozi va
stavkasi**
S.K. 298-modda



Soliqdan nogironlarning jamoat birlashmalari multida bolgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil tgan ridik shaxslar ozod qilinadi

Soliq boyicha stavka so‘f foydaling 8 foizi miqdorida belgilangan

2.29-rasm. Soliq imtiyozi va stavkasi

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lash mazkur soliq bo‘yicha hisob-kitobni taqdim tish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq


Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning davlat byudjeti jami daromadlaridagi salmog‘i 2010 yilda 1.9 foiz, 2011 yilda 2.2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012 yil reja ko‘rsatkichlarida 2.1 foiz bo‘lishi proqnozlashtirilgan .

2.3-jadval

O‘zbekiston respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq salmog‘i to‘g‘risida ma'lumot*

